

# Matematiklardan master-klass mushg'ulotlari

2021-yil 13-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Matematika instituti Buxoro hududiy bo'linmasi hamda Buxoro davlat universiteti "Matematik analiz" va "Differentsial tenglamalar" kafedralari professor-o'qituvchilari Qorako'l tumanidagi Xalqaro matematika maktabida master-klass mashg'ulotlarini o'tkazishdi.



Matematika instituti Buxoro bo'linmasi mudiri f.-m.f.d., professor D.Durdiev o'quvchilar bilan suhbat davomida ularning o'qishlari, kelajakdagi rejalar, o'quvchilarni qiziqtirgan savollarga javob berib, tegishli maslahatlar berdi. Shuningdek, Xalqaro matematika maktabi o'qituvchilarining ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun kerakli tavsiyalar berildi.

Professor-o'qituvchilar Z.Bozorov "Kirish imtihonlarida abiturientlar yo'l qo'yadigan tipik xatoliklar", E.Dilmurodov "Hosila va uning tatbiqlari" mavzusida mahorat darslari o'tishdi.

Professor-o'qituvchilar S.Boboyev va I.Shodmonovlar matematika darslarini tahlil qilishdi.

Uch rashuv so'ngida aloqalarni yanada kuchaytirishga kelishib olindi.